

КО'НГИЛ

Abdulla Maxmatqulov

*Har narsaga siqilma ey ko'ngil,
Na bu dardlar qolguvchi, na bu umr...
(Jaloliddin Rumiy)*



Ko'ngil... Besh harfdan iborat oddiygina so'z... Aytishga-da oson... Yozilishga-da qulay... Ammo, shugina so'zning ortida yuzlab ma'no, minglagan taqdirlar, millionlab tuyg'ular yotishini anglaganimizda adog'siz o'y larga cho'mamiz. "Ko'ngilki, bir oyna", deyishadi. Oyna bo'lganda ham, muqaddas oyna! Shuning uchun ham u qalb xazinasida saqlanadi. Bu xazina kalitlari esa har kimga ham berilmaydi. Zero, bu kalitlar, faqat, ishonchga loyiqlargagina berilar ekan, demak, ulargina bu gavhardan bahramand bo'ladilar. Biroq, tanganing ikkinchi tomoni ham borki, ko'ngil oynasini sindirish ham, faqat, kalit sohiblarininggina qo'lidan keladi. O'shalargina qalb xazinasini o'g'irlashga qodir. Axir, ruxsat tegamaganlar bu xazinaga qanday ham kirsin?!

Bu kalit sohiblari kimlar?! Deylik, er... Deylik, xotin... Ota-on, bobo-momo, aka-uka, opa-singil, ustoz, shogird, do'st, birodar... Yuragimizga yaqin odamlar... Dushmaning ko'ksinga tig' ursa, ranjimaysan, xafa bo'l maysan! Nari borsa, o'larsan. Taning og'riydi... Ammo, qalbing xotirjam... Biroq, qalbingni bergan kishing ortingdan tig' ursa, mayli, bittagina nina sanchsa, o'ksiysan, qalbing og'riydi! Joning bo'g'zinga keladi. Hayoting qorong'ulashadi. O'sha xazinangdag'i oyna chil-chil sinib bitadi. Oynani yamash mumkindir. Lekin u, aslo, avvalgi holiga qaytmaydi! Singan yamoqligicha qoladi...

Shunday ekan yaqinlarimiz bilan xafalashishdan oldin o'ylab ko'raylik! Behosdan ularning ko'ngil oynalarini sindirib qo'ymadikmikin? Ha, biz insonlar birovlarining dardi bilan ishimiz yo'q. Faqatgina o'zimizda hammasi yaxshi bo'lsa, "olam --- guliston!" deymiz. Kaltak o'zimizning boshimizda singandagina ko'zimiz ochiladi. Nahot, shunchalar befarqmiz, yo loqayd?! Atrofimizdagilarning qadrini qachon anglab yetarkanmiz? "Oldingdan oqqan suvning qadri bo'lmas", deydi dono xalqimiz. Ha, maqollar necha mingyilliklarning guvohi bo'lgan dono xalqimiz ongingin xulosalaridir...

Bilasizmi, bu hayotda ko'ngildan ham nozik narsa yo'q nazarimda?! Bittagina shirin so'z qanchalar quvontiradi uni. Aksiga bittagin yomon so'z bilan vayron bo'ladi bechora. Ko'ngil muqaddas joy. U yerga har kim ham yo'l topolmaydi. Chunki faqat pok insonlargina ko'ngil uyiga bora olishadi. Hadislarda keltirilishicha "Yaratganimiz bir kunda bir necha martalab ko'nglimizga nazar tashlar ekan. Bandamning ko'nglida kim bor ekan, yo nima bor ekan?" deya. "Abu Hurayra (r.a) dan rivoyat qilinadiki, Nabiyimiz (s.a.v) : Albatta, Alloh suratingizga va mol dunyoyingizga nazar qilmaydi. U qalbingiz va amalingizga nazar qiladi, deganlar". Shunday ekan qalblarni og'ritishdan qo'rqaylik. Qalb Allohning uyi deyishadi. Demak, qalblarni vayron qilmoq Yaratganning uyini buzish bilan barobar ekan.

Xulosa qiluvchilar uchun bir so'z ham yetarli, aslida. Foydasi yo'qlarga esa qancha gapirmang baribir foydasiz... Qalblarni og'ritishdan ehtiyoj bo'laylik azizlar... Shu o'rinda Mahbubiy (Abror Muxtor Aliy) hazratning quyidagi baytlari yodimga tushdi:

*Soyasida, mayli, o'tir yaproq sendan ranjimasin,
Poklanib, so'ng qabrga kir tuproq sendan ranjimasin!
Havolanma qo'risalar, to'g'ri so'zla so'rasalar,
O'lsang kafan o'rasalar matoh sendan ranjimasin!*

Ha, do'stlar bizdan hech kim ranjimasin. Ranjitganlarni ham kechirdik. Axir, Yaratgan kechirguvchidir! Biz kim bo'libmizki, kechirmasak?! Assalomu alaykum!